

TIL VA MADANIYATNING O'ZARO ALOQASI

Saminova Mukarramoy Ikromjon qizi

tadqiqotchi

Annotatsiya: *Ushbu maqola til va unga turlicha qarashlar, xususan, ushbu tushunchaning madaniyat bilan aloqadorligi to'g'risida.*

Kalit so'zlar: *til, madaniyat, relativistik va nominalistik yondashuv, lingvokulturema, konsept, lingvokulturologik birlik, noema.*

Tilning ongimizdagi holati nuqtayi nazaridan ikki xil qarash mavjud. Birinchisi nominalistik, ikkinchisi relativistik qarash hisoblanadi. Nominalistik qarashga ko'ra, bizning idrokimiz biz so'zlashadigan maxsus bir til orqali yuzaga kelmaydi. U bizning fikrlarimizning tasodifiy tashqi shakli sifatida qaraladi. Relativistik qarashga binoan, biz so'zlashadigan til va ushbu tilning tuzilishi fikrlarimizni, tasavvurlarimizni, madaniy komponentlarimizni belgilab beradi. Ushbu qarash Edvard Sepir tomonidan atroflicha yoritilgan. Unga ko'ra, "Til bizning hayot tarzimizni tavsif qiluvchi ijtimoiy meros qilib olingan malaka va g'oyalar yig'indisi sifatida madaniyatdan alohida mavjud bo'la olmaydi. Til inson faoliyatlarining biri sifatida madaniyatning tarkibiy qismi sanalib, tafakkur shakli hamda muloqot vositasi sifatida madaniyat bilan bir o'rinda turadi"⁹². Til madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan atrof-muhit, uning real yashash sharoitlari, shuningdek, xalqning ijtimoiy o'z o'zini anglashi, xalqning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlarining majmuyi va dunyoqarashi ham o'z ifodasini topadi.

Sh.Usmonova o'zining "Lingvokulturologiya" kitobida til va madaniyat xususida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Til madaniyatning xazinas, sandig'i, majmuyi hisoblanadi. U leksika, grammatika, iboralar, maqol hamda matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og'zaki, shuningdek, yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi"⁹³.

Til madaniyatning tashuvchisi hisoblanib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili bilan birgalikda ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi. Til madaniyat quroli, vositasidir. U xalq madaniyati yordamida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi. Agar tilga uning strukturasi, vazifalari hamda uni.

⁹² Сепир Э. Являе. Введение в паучение речи // Избранные труды по языкознанию и культурулинии. -М: Прогресс, 1993. -С. 185.

⁹³ Usmonova Sh. Lingvokulturologiya.Darslik. Toshkent, 2019. -B.7.

o'zlashtirish tomonidan qaraladigan bo'lsa, u holda ijtimoiy qatlam yoki madaniyatning komponenti tilning bir qismi bo'ladi. Ayni paytda madaniyatning komponenti til yordamida xabar qilinadigan qandaydir madaniy axborot emas. U tilning barcha sathlariga oid bo'lgan tilga xos ajralmas xususiyatdir"⁹⁴.

Til va madaniyat masalalarini "lingvomadaniyatshunoslik" fani o'rganadi. V. V. Vorobevning fikricha, "kunimizda lingvokulturologiyani muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuyini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini hamda milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta'limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin. Demak, lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandır"⁹⁵.

Til bilan madaniyatning o'zaro munosabati xususida gapirganda "madaniyat" tushunchasi xususida batafsil to'xtalish lozim. Madaniyat insoniyat rivojining muayyan yuqori darajasi sanaladi. U insonlar faoliyatlarida va hayotlarida, moddiy va ma'naviy meroslarida o'z ifodasini topadi. "Madaniyat" tushunchasi ma'lum tarixiy davr (antik madaniyat), aniq bir jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos tarmoqlari (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati) ni izohlash uchun foydalaniladi. Tor ma'noda "madaniyat" atamasi insonlarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan foydalaniladi.

F. Boasning XIX asr oxirida antropologik tadqiqotlari boshlanishi bilan "madaniyat" termini turli jamiyatlarga nisbatan ham ishlatila boshlandi. Madaniyatga nisbatan qarashlarning bunday modifikatsiyasi tilning qanday ahamiyat kasb eta borishi jihatidan juda muhim sanalanadi. Shu paytdan boshlab til hamda madaniyat uzviy aloqadorlikda ko'rib chiqiladi.

A. Vejbitskaya, madaniyatning Klifford Gerts taklif qilgan anchayin samarali bir ta'rifini aytib o'tadi. Unda shunday keltiriladi: madaniyat – bu ramzlarda mujassamlashgan mohiyatlarning tarixiy jihatdan shakllanadigan bir modeli hisoblanadi. Bu meros qoldiriladigan tasavvurlar tizimi bo'lib, ular tufayli odamlar o'zaro bir-biri bilan muloqotda bo'lishadi va ularning hayot.

⁹⁴ Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. Toshkent, 2019. –B.7.

⁹⁵ Воробьев В. В. О статусе лингвокультuroлогии // IX Международный Конгресс МАПРЯЛ. Русский язык, литература и культура на рубеже веков. Братислава, 1999. С. 125-126.

haqidagi bilimlari hamda hayotiy qoidalari shu tasavvurlar yordamida qayd qilinadi va rivojlanadi⁹⁶.

Til madaniyat va tabiat hodisasi sifatida mavjud. Ma'lumki, til madaniyatning tarkibiy qismidir. U insoniyatning ijtimoiy tarixidagi eng ahamiyatga sazovor yutuqlaridan biri hisobladi. Ammo boshqa tomondan insonning biologik tabiati tilning materyasida namoyon bo'ladi. Ko'p narsa bu o'rinda nutqiy faoliyatning psixofiziologik va fiziologik imkoniyatlari bilan aniqlangan. Masalan, dunyoning barcha tillarida unli va undoshlar hamda ko'plab tovushlar almashinuvi zanjirining borligi madaniyat bilan emas, tabiat bilan bog'liqdir. Binobarin, inson faqatgina unlilar yoki undoshlarning o'zi bilan nutq hosil qila olmaydi. Til strukturasi teran xususiyatlarini va matnni hosil qilish va uni qabul qilish qonun-qoidalarini tabiat aniqlaydi. Tilning mazmun tomonini esa madaniyat aniqlaydi⁹⁷.

Mashhur rus tilshunos olimi G. O. Vinokurning "tilni o'rganayotgan har qanday tilshunos, albatta, tanlagan tili uning mahsuloti bo'lgan o'sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi" degan tezi lingvistikaning shakllanishidan boshlab tasdiqlanib kelmoqda. L. Gerderning 1770-yilda yozilgan "Tilning kelib chiqishi haqida talqin" asarida inson faoliyatidagi to'rt asosiy hodisa til, madaniyat, jamiyat hamda milliy ruh bir-biri bilan bog'langan. Til o'zining kelib chiqishiga ko'ra madaniyat bilan aloqador bo'lib, u jamiyat bilan birga rivojlanib boradi⁹⁸. Til va madaniyatning o'zaro munosabati, shuningdek, Vilgelm fon Gumboldtning "Odam tillarining tuzilishini farqlanishi va uning odam zotini ma'naviy rivojlanishiga ta'siri" nomli asarida batafsil yoritilgan. Olimning turli tillar o'z mohiyatlari, bilish va sezishga ta'sir ko'rsatishlari bo'yicha turli dunyoqarashni tashkil etishi hamda til xususiyatlarining millat mohiyatiga ta'sir ko'rsatishi haqidagi fikrlari keng tarqala boshladi. Olimning ta'limotida quyidagi g'oyalar o'z ifodasini topdi:

- 1) moddiy va ma'naviy madaniyat tilda jamlanadi;
- 2) har qanday madaniyat milliydir, uning milliy xarakteri tilda olamni o'ziga xos ko'rish vositasi bilan ifodalanadi; har bir xalq uchun o'ziga xos bo'lgan ichki shakl tilga xosdir;
- 3) tilning ichki shakli – "xalq ruhi" va uning madaniyatining ifodasi;
- 4) inson va uning o'rab olgan dunyo orasidagi halqa til hisoblanadi⁹⁹.

⁹⁶ Murodova R. Til va madaniyatning talqini zamonaviy tilshunoslik nigohida. Central asian academic journal of scientific research. 2022. –B. 895.

⁹⁷ Мечковская Н. Б. Социальная лингвистика. 1. 2 изд. -М: Аспект Пресс, 2000. –С.207.

⁹⁸ Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. Toshkent, 2019. –B.70.

⁹⁹ Narzullayeva D, Narzullayeva N. Innovative Development in Educational Activities.2023. №3. –B.142.

Til va madaniyat haqida fikr yuritar ekanmiz o'z- o'zidan savol tug'iladi: "Til avval paydo bo'lganmi yoki madaniyat?" Bu savolga amerikalik mashhur tilshunos va madaniyatshunos Edvard Sepir quyidagicha javob beradi: "Dastavval til paydo bo'lgan, chunki til madaniyatga nisbatan ma'no ifodalovchi vosita hisoblanadi. Milliy madaniyat mavjudligining va uning ifodalanishining asosiy shakli til sanaladi¹⁰⁰". U madaniyatni saqlab qolishning asosiy vositasi sifatida maqollar, standartlashgan duolar, qarg'ishlar, xalq rivoyatlarini aytib o'tadi. "Til va madaniyat" ko'p qirrali hamda murakkab hodisa bo'lganligi sababli unga turli xil yondashuvlar mavjud. Dastlabki yondashuv vakillari rus faylasuflari S.A. Atanovskiy, G.A. Brutyan, Ye.I. Kukushkin, E.S. Markaryanlar bo'lib, ular til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi bir tarafga bo'lgan harakatdir, til borliqni aks ettiradi, bu borliqning ajralmas qismi esa madaniyatdir, madaniyatning in'ikosi tildir, - deb qaraganlar. Ikkinchi fikr tarafdorlari esa E. Sepir va B. Uorf maktablarining qarashlarida aks etgan. Ularning fikricha, 1. Til unda so'zlashuvchi xalqning tafakkur usuli bilan bog'liqdir.

2. Olamni bilish usuli subyektlarning qanday tillarda fikrlashiga aloqadordir¹⁰¹.

Uchinchi qarash vakillarining fikrlariga ko'ra esa til madaniyatning dalili hisoblanadi. Til bu madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, u madaniyatni o'zlashtirishning asosiy vositasi hamda madaniy hodisalarning eng muhimi sifatida qaralgan.

O'zbek tilshunoslik ilmda "til va madaniyat" masalalari bilan eng ko'p shug'ullangan inson Nizomiddin Mahmudov hisoblanadi. U til va madaniyat masalalari yuzasidan quyidagilarni qayd etadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati" demakdir"¹⁰².

N.Maxmudov o'zining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab" nomli maqolasida V. fon Gumboltning til haqidagi quyidagi fikrlarini keltiradi: "Til.

¹⁰⁰ Sapir E. Language: An Introduction to the study of speech. New York Harcourt, Brace and company.1921. –P.42.

¹⁰¹ Usmonova Sh. Lingvokulturologiya Darslik. Toshkent. 2019. –B.74.

¹⁰² Maxmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab. –O'zbek tili va adabiyoti, №5. 2012.-B.10.

xalqlar ruhining xuddi zohiriy namoyon bo'lishidir: xalqning tili uning ruhidir va xalqning ruhi uning tilidir, bulardanda bir-biriga aynan mos boshqa biror narsani tasavvur qilib bo'lmaydi"; "Tillarning xilma-xilligi tovushlar va belgilardagi farqlar tufayliga emas, balki dunyoni ko'rishning o'zidagi farqlar tufayli hamdir"; "turli tillar millatlar uchun ularning original tafakkuri va tasavvuri organlari ekanligini umume'tirof etilgan deb hisoblash mumkin"; "Tafakkur umuman tilga shunchaki bog'liqqina emas, u muayyan darajada har bir alohida til bilan shartlangan hamdir"; "Xarakter yaratish uchun eng qulay vosita tildir; butun milliy xarakter faqat tilda muhrlangan"; "Millatning xarakterini axloq, odob, xatti-harakatidan ko'ra, tiliga qarab osonlik bilan bilish mumkin"¹⁰³. Lingvistik adabiyotlarda til va madaniyatning o'xshashligi sifatida madaniyat va til insonning va xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shakllaridan biri ekanligi, ularning o'zaro muloqotda (dialogda) mavjudligi, ikkala tushuncha ham individual yoki umumiy mavjudlik shakllariga egaligi, normativlikning mavjudligi, tarixiylikning har ikki tushunchaning mohiyatida mavjud ekanligi keltirib o'tiladi¹⁰⁴.

Til va madaniyat tushunchalariga oid birliklarni tahlil qilishda, «avloddan avlodga (tarixiy aspekt), bir ijtimoiy kollektivdan boshqasiga, kollektivdan individga yoki aksincha, (ijtimoiy aspekt), individdan individga (individual psixologik aspekt), bir millatdan ikkinchisiga (millatlararo aspekt) va boshqalar» lingvokulturologik axborotlarni to'plash va uzatish jarayonida kompleks birliklar tushunchasi kiritiladi, ular mazmun jihatidan ham lisoniy mazmunga, ham madaniy mazmunga o'zaro aloqador bo'ladilar. Bu hodisani belgilash maqsadida turlicha terminlar tavsiya etilganligini ko'ramiz: konsept (Yu. Stepanov, V. Teliya, D. Lixachev, V. Neroznak, N.Arutyunova); lingvokulturema (V. Vorobyev), milliy sotsiomadaniy stereotip (Yu. Proxorov), kulturoznak (madaniy belgi) (A.Onkovich), mifologema (V.Bazilev), logoepistema (B.Vereshagin - V.Kostomarov; V.Kostomarov va N.Burvikova), noema - yangi so'z, yangi ibora yoki yangi birlik - E. Gusserl) va boshqalar, terminlarning ko'pligi, ular o'rtasidagi o'ziga xos «musobaqadoshlik»(bellashuv) lingvomadaniyatshunoslikning rivojlanish davrini boshidan kechirayotganining belgisidir¹⁰⁵. Yuqoridagi terminlar ba'zi nuqtalarda kesishsa ham, mazmunan to'la mos kelmaydi. Chunki bu atamalar lisoniy-madaniy tushunchaga oid sohalarda va ushbu sohaga oid munosabatlarda turli xil qarashlarni ifodalaydi.

¹⁰³ Maxmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab. -O'zbek tili va adabiyoti, №5. 2012.-B.10.

¹⁰⁴ Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. -Toshkent: "Tafakkur avlodi", 2020. -B.83.

¹⁰⁵ Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. - Toshkent: "Tafakkur avlodi", 2020. -B.88.

Chindan ham til insoniyatning eng muhim qurolidir. Olimning yuqoridagi fikrlari tilning insoniyat uchun nechog'lik ahamiyatli ekanligining ochiq dalilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Сепир Э. Являе. Введение в паучение речи // Избранные труды по языкознанию и культурологии. -М: Прогресс, 1993. –С. 185.
2. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya.Darslik. Toshkent, 2019. –B.7.
3. Воробьев В. В. О статусе лингвокультурологии // IX Международный Конгресс МАПРЯЛ. Русский язык, литература и культура на рубеже веков. Братислава, 1999. С. 125-126.
4. Murodova R. Til va madaniyatning talqini zamonaviy tilshunoslik nigohida. Central asian academic journal of scientific research. 2022. –B. 895.
5. Мечковская Н. Б. Социальная лингвистика. 1. 2 изд. -М: Аспект Пресс, 2000. –С.207.
6. Narzullayeva D, Narzullayeva N. Innovative Development in Educational Activities.2023. №3. –B.142.
7. Sapir E. Language: An Introduction to the study of speech. New York Harcourt, Brace and company.1921. –P.42.
8. Maxmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab. –O'zbek tili va adabiyoti, №5. 2012.-B.10.
9. Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. -Toshkent: "Tafakkur avlodi", 2020. –B.83.